Registered in Germany **Europa Revue Journal**
ISSN: 1862-6564 **Vol. 6 No. 6 (2026) Published June 25, 2026**

THE IMPORTANCE AND PROSPECTS OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE IN THE FIELD OF LAW IN THE MODERN PERIOD

ADILOVA MARJANGUL ELMURATOVNA
Lecturer at Karakalpak State University
GULIMBETOVA HURLIMON YUSUF QIZI
Student of Karakalpak State University

Abstract

This article analyzes the role and advantages of artificial intelligence technologies in legal research and legal practice, as well as the emerging risks and challenges. The study highlights the importance of artificial intelligence in searching for regulatory legal acts, analyzing judicial practice, preparing draft legal documents, and increasing the efficiency of legal service delivery processes. Additionally, based on the experience of the USA and the European Union, as well as the digital transformation processes being implemented in the Republic of Uzbekistan, the legal, ethical, and cybersecurity aspects of using artificial intelligence are examined. As a result of the study, it was found that artificial intelligence serves to increase the efficiency of work in the field of law, expand access to legal information and reduce corruption factors. At the same time, the need to improve the regulatory and legal mechanisms governing data confidentiality, algorithmic errors, and professional responsibility has been substantiated.

Keywords

artificial intelligence, legal research, legal practice, legal technologies, AI Act, cybersecurity, legal ethics, digital transformation.

HOZIRGI DAVRDA HUQUQSHUNOSLIK SOHASIDA SUN’IY INTELLEKTNING AHAMIYATI VA ISTIQBOLLARI

ADILOVA MARJANGUL ELMURATOVNA
Qoraqalpoq davlat universiteti o‘qituvchisi
GULIMBETOVA HURLIMAN YUSUP QIZI
Qoraqalpoq davlat universiteti talabasi

Annotatsiya*: Mazkur maqolada sun'iy intellekt texnologiyalarining huquqiy tadqiqotlar va yuridik amaliyotdagi o'rni, afzalliklari hamda yuzaga kelayotgan xavf va muammolar tahlil qilingan. Tadqiqotda sun'iy intellektning normativ-huquqiy hujjatlarni izlash, sud amaliyotini tahlil qilish, huquqiy hujjatlar loyihalarini tayyorlash va yuridik xizmatlar ko'rsatish jarayonlarini samaradorligini oshirishdagi ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, AQSh va Yevropa Ittifoqi tajribasi hamda O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan raqamli transformatsiya jarayonlari asosida sun'iy intellektdan foydalanishning huquqiy, axloqiy va kiberxavfsizlik bilan bog'liq jihatlari ko'rib chiqilgan. Tadqiqot natijasida sun'iy intellekt huquq sohasida ish samaradorligini oshirish, huquqiy axborotdan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish va korrupsiyaviy omillarni kamaytirishga xizmat qilishi aniqlangan. Shu bilan birga, ma'lumotlar maxfiyligi, algoritmik xatolar va professional mas'uliyat masalalarini tartibga soluvchi normativ-huquqiy mexanizmlarni takomillashtirish zarurligi asoslab berilgan.*

Kalit so'zlar: *sun'iy intellekt, huquqiy tadqiqot, yuridik amaliyot, huquqiy texnologiyalar, AI Act, kiberxavfsizlik, huquqiy etika, raqamli transformatsiya.*

ЗНАЧЕНИЕ И ПЕРСПЕКТИВЫ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В СФЕРЕ ПРАВОВЕДЕНИЯ В СОВРЕМЕННОЕ ВРЕМЯ

АДИЛОВА МАРЖАНГУЛ ЕЛМУРАТОВНА
Преподаватель Каракалпакского государственного университета
ГУЛИМБЕТОВА ХУРЛИМАН ЮСУП КИЗИ
Студент Каракалпакского государственного университета

Аннотация: *В данной статье анализируются роль и преимущества технологий искусственного интеллекта в правовых исследованиях и юридической практике, а также возникающие риски и проблемы. В исследовании освещается значение искусственного интеллекта в поиске нормативно-правовых актов, анализе судебной практики, подготовке проектов правовых актов и повышении эффективности процессов оказания юридических услуг. Также на основе опыта США и Европейского Союза, а также процессов цифровой трансформации, осуществляемых в Республике Узбекистан,*

рассмотрены правовые, этические и кибербезопасные аспекты использования искусственного интеллекта. В результате исследования было установлено, что искусственный интеллект служит повышению эффективности работы в правовой сфере, расширению доступа к правовой информации и снижению коррупционных факторов. В то же время обоснована необходимость совершенствования нормативно-правовых механизмов, регулирующих вопросы конфиденциальности данных, алгоритмических ошибок и профессиональной ответственности.

Ключевые слова: *искусственный интеллект, правовые исследования, юридическая практика, правовые технологии, AI Act, кибербезопасность, правовая этика, цифровая трансформация.*

Bugungi global raqamlashtirish davrida sun’iy intellekt texnologiyalari an’anaviy huquqiy tadqiqot metodologiyalarini va yuridik xizmatlar ko‘rsatish tizimini tubdan o‘zgartirmoqda. Algoritmlarning tezkorligi va katta hajmdagi ma’lumotlar bilan ishlash qobiliyati huquqshunoslar faoliyatini yengillashtirish bilan bir qatorda, axloqiy, professional va kiberxavfsizlikka doir qator tizimli muammolarni ham yuzaga keltirmoqda. Ushbu munosabat bilan, sun’iy intellektning huquq sohasidagi ijobiy va salbiy jihatlarini xalqaro standartlar hamda milliy qonunchilik prizmasi orqali tahlil qilish, yuridik amaliyot uchun xavfsiz metodik yondashuvlarni ishlab chiqish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Oxirgi yillarda sun’iy intellekt har bir sohada, shu bilan birga huquq sohasida hamda huquqiy tadqiqotning barcha bo‘g‘inlariga — normativ–huquqiy hujjatlarni qidirish, to‘plash, yig‘ish, pretsedent tahlili, hujjat (memorandum, dalolatnoma) loyihalash va dalil-isbotlarni saralash jarayonlariga chuqur kirib bordi. Lexis AI va Westlawning AI-Assisted Research singari platformalari tizimlashtirilgan ma’lumotlar bazalari bilan generativ AIni birlashtirib, tezkor va manbaga bog‘langan javoblar berishni va’da qilmoqda; shu bilan birga, maxfiylik, malakaviy mas’uliyat va huquqiy etikaga doir muammolar amaliy xavf sifatida saqlanib qolmoqda.

AQSh Advokatlar assotsiatsiyasining 2024-yilgi rasmiy fikri advokatlar AIdan foydalanganda texnologik bilimlari, maxfiylik, muloqot va to‘lovlarga doir burchlarni qat’iy saqlashi shartligini eslatadi. Yevropa Ittifoqining "AI

to‘g‘risida"gi qonuni (AI Act) esa umumiy maqsadli AI va yuqori xavfli tizimlar uchun oshkoralik va xavf boshqaruvi majburiyatlarini belgilab, huquqiy xizmatlarga ham ta’sir ko‘rsatadi. Bu holat huquqiy tadqiqot metodologiyalarida, jamiyatda huquqiy xizmat ko‘rsatishda va huquqiy ma’lumotga kirishda muhim o‘zgarishlarga sabab bo‘lmoqda. Shu bilan birga, AI huquq sohasida normativ-huquqiy, axloqiy va texnik-xavfsizlik muammolarini va xatolarini ham yuzaga keltirmoqda. Sun’iy intellekt — insonning bilim va ko‘nikmalariga taqlid qilish imkonini beruvchi (shu jumladan, mustaqil ravishda o‘rganish va yechimlarni izlash) hamda aniq vazifalarni bajarishda inson aqliy faoliyati natijalari bilan taqqoslanadigan natijalarni olish imkonini beradigan texnologik yechimlar majmuidir Ma’lumki, sun’iy intellekt (SI) bir necha o‘n yillar oldin yaratilgan bo‘lsa-da, undan foydalanish boshqa sohalar bilan bir qatorda huquqshunoslik sohasida ham yaqin yillarda keng tarqaldi. Uning bu sohaga kirib kelishi o‘ziga xos bir ahamiyat kasb etdi va huquqshunoslar uchun katta qulayliklar tug‘dirdi. Xitoylik tadqiqotchi Wang Yi aytganidek: “Huquqshunoslikda sun’iy intellektdan foydalanish huquqni yaxshiroq tushunish va uni qo‘llash imkoniyatini ta’minlaydigan vositalarni o‘z ichiga oladi.” Hozirda muayyan masalaga doir normalarni topish, ularni tushunish hamda tahlil qilish avvalgiday murakkab jarayon hisoblanmaydi. Negaki “Lex AI” kabi SI tomonidan qo‘llab-quvvatlanadigan sun’iy intellekt platformalari orqali kerakli huquq normalarini topish va ularni tahlil qilish imkoniyati mavjud.

Bundan tashqari, endilikda turli huquqiy vaziyatlarda qanday yo‘l tutish zarurligini bilish uchun SIdan bepul maslahat so‘rash mumkin. 2022-yilning oxirida OpenAI kompaniyasi matnli so‘rovlarga javob bera oladigan ChatGPT dasturini ommaga taqdim etdi[2]. Yuqorida aytib o‘tilganidek, huquq sohasiga doir platformalar ham huquqiy texnologiyalarning bir turi hisoblanadi. Davlatlar o‘z hududida amalda bo‘ladigan normativ-huquqiy hujjatlar chiqarar ekan, ulardan keng foydalanish imkoniyatini ta’minlash maqsadida bu hujjatlarni bitta joyga — texnologik taraqqiyotni hisobga olganda, veb-platformaga to‘plash zarurati tug‘iladi. O‘zbekiston Respublikasida ham mana shunday veb-platforma “lex.uz” hisoblanadi. Unda davlat tomonidan rasmiy e’lon qilingan barcha hujjatlar mavjud bo‘lib, fuqarolar ulardan

foydalanishi, ularga kiritilgan o‘zgartirish va qo‘shimchalarni doimiy kuzatib borishi, normalarga berilgan sharhlar, umuman olganda, o‘z huquq va manfaatlariga taalluqli bo‘lgan qonunchilik manbalaridan erkin foydalanishi mumkin. Xalqaro miqyosda huquqiy platformalardan “LexisNexis” va “Westlaw” kabilarni misol keltirishimiz mumkin, qaysiki dunyodagi ko‘plab mamlakatlar tomonidan keng ravishda foydalaniladi. Bundan tashqari, huquqni o‘rganayotganlar va bu sohada faoliyat yuritayotgan mutaxassislar sud organlari haqida ma’lumot olishi, sud hujjatlari hamda sud qarorlari to‘plamlari bilan tanishishiga imkon beruvchi huquqiy texnologiyalar ham mavjud. Bularga misol sifatida “E-XSUD” yoki “SUD.UZ” onlayn platformalarini keltirishimiz mumkin. Huquqshunos mutaxassis Aayushi Selot aytganidek, huquqiy texnologiyalar rivojlanishda davom etar ekan, biz yangi innovatsiyalar va o‘zgarishlarni ko‘rishimiz mumkin[3]. Huquqiy texnologiyalarning yana bir afzalligi shundaki, bugungi kunda Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali (my.gov.uz) orqali shaxsga doir ma’lumotlar, elektron hujjatlar va boshqa ma’lumotnomalar bilan ishlash va ularni olish imkoniyati yaratilgan. Endi hujjatlarning asl nusxasini olib yurishga hojat yo‘q, chunki qonunchilikda qog‘oz shaklidagi hujjatlar elektron hujjatlar bilan tenglashtirilgan va bir xil yuridik kuchga ega[4]. Bu qoida “Elektron hujjat aylanishi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonunida mustahkamlab qo‘yilgan. Insonlar o‘zlariga tegishli, yuristlar esa mijozlariga tegishli bo‘lgan hujjatlarni yoki ruxsatnomalar, yo‘llanmalar, ma’lumotnomalarni olish uchun avvalgiday ma’lum bir idoralarga borishi va navbat kutishi shart emas. Bunday harakatlarni joylarda turib onlayn tarzda amalga oshirish mumkin. Buning natijasida insonlarda vaqt va pul mablag‘larini tejash imkoniyati yuzaga keladi. “Texas Tech University School of Law Library” xalqaro jurnalida nashr etilgan “Four-step legal research process” maqolasida huquqiy amaliyotda sun’iy intellektdan (SI) foydalanish keskin oshib borayotganligi ta’kidlangan [5]. Bu huquq sohasida ilg‘or rivojlanish hamda innovatsiyalar bilan bir qatorda, SIning huquqshunoslarning eng yaqin yordamchisiga aylanish jarayoni ham bo‘lmoqda. SI eng ko‘p ishlatiladigan sohalardan biri, albatta, huquq sohasidir, negaki bu sohaning vakillari mana shunday yordamchiga muhtoj bo‘ladilar. Ular an’anaviy ravishda hujjatlarni to‘plash, tahlil qilish,

shartnomalar, ma’lumotnomalar, bayonnomalar hamda boshqa turli huquqiy hujjatlarni tayyorlash singari ishlar uchun kunlab, hattoki haftalab vaqt sarflashlari kerak bo‘ladi. Shu bilan birga, ma’lumotlarni joylashtirishda inson omili tufayli xatolikka yo‘l qo‘yish ehtimollarini ham hisobga olganda, bu kabi ishlar birmuncha murakkab sanaladi.

Anna Fine, Emily R. Berthelot, Shawn Marsh kabi yetuk huquqiy-texnologik tadqiqotchilar shunday ta’kidlaydi: “Sud tizimiga sun’iy intellekt kirib kelar ekan, uning turli guruhlar tomonidan qanday qabul qilinishi hamda sud jarayoni va qonuniylik tushunchalariga qanday ta’sir etishini anglash muhim sanaladi.” Negaki bugungi kunda sud amaliyotida SIdan foydalanish g‘oyasi bir qancha guruhlar tomonidan keng muhokama qilinmoqda. Qarashlarga ko‘ra, SIga sudyaning bir qancha qarorlarini berib, uning tahlil natijalariga ko‘ra ushbu sudyaning keyingi qarorini bashorat qilish huquqini berish, qaysidir ma’noda sudyaning o‘rniga SIdan foydalanish yoki uni sudyaga yordamchi qilish mumkin. Masalan, Ukraina Adliya vazirligi jinoyatchi tomonidan qonun buzilishi ehtimollarini tahlil qilish imkoniyatini beruvchi, sun’iy intellekt elementlarini o‘z ichiga oluvchi “Cassandra” dasturini ishga tushirmoqda [5]. Buning ijobiy tomoni shundaki, SI subyektiv qarash va fikrlarga ega emas, shu boisdan uning qabul qilgan qarorlari faqat qonun asosida bo‘ladi hamda korrupsiya holatlariga yo‘l qo‘yilmaydi. O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligida dan ham sudlar faoliyatiga sun’iy intellekt texnologiyalarini joriy etish uchun zarur texnik infratuzilma yaratish, shuningdek, ushbu yo‘nalishdagi normativ-huquqiy bazani takomillashtirish bo‘yicha choralar ko‘rish belgilangan [6].

O‘tkazilgan tahlillar shuni ko‘rsatadiki, sun’iy intellektning huquq sohasidagi o‘rni faqatgina texnik qulayliklar bilan cheklanmay, balki huquqni qo‘llash metodologiyasini transformatsiya qilmoqda. SIning subyektiv qarashlardan xoliligi va korrupsiyaviy xavflarni kamaytirishi kabi ijobiy jihatlari uning oshkoralik, ma’lumotlar himoyasi hamda axloqiy mas’uliyat bilan bog‘liq muammolari fonida muvozanatlanishi shart. Demak, sohada raqamli transformatsiyani muvaffaqiyatli davom ettirish uchun ham texnik infratuzilmani, ham uning huquqiy va axloqiy chegaralarini belgilovchi normativ bazani parallel ravishda rivojlantirish lozim.

Adabiyotlar ro`yxati:

1. Sun’iy intellekt texnologiyalarini 2030-yilga qadar rivojlantirish strategiyasi. Lex.uz. 2024-yil 14-oktabr.

2. John Villasenor. Generative Artificial Intelligence and the Practice of Law: Impact, Opportunities, and Risks, 25 Minn. J.L. Sci. & Tech. 25. LexisNexis. 2024.

3. Aayushi Selot. Article - Legal tech startups: Transforming law practice.

4. O`zbekiston Respublikasining “Elektron hujjat aylanishi tog`risida”gi qonini. 29.04.2004 yildagi 611-II-son. 7-modda.

5. Article – Four-step legal research process, AI in law practise. October 3, 2025. https://globalscholars.uz/index.php/ijsir INTERNATIONAL: JOURNAL OF SCIENCE-INNOVATIVE RESEARCH Volume 01. Issue 03. October-2025 1388. Legal Technology and the Future of Women in Law. Kayal Munisami. 2025. (Westlaw Classic)

5. Olena Yara, Anatoliy Brazheyev, Liudmlyla Golovko, Viktoriia Bashkatova. Legal regulation of the use of artificial intelligence: problems and development prospects. 281-p. European journal of sustainable development. 2021.10.1

6. O`zbekiston Respublikasining «Sudlar faoliyatiga sun’iy intellekt texnologiyalarini joriy etish orqali odil sudlovga erishish darajasini oshirish hamda sud tizimining moddiy-texnik ta’minotini yaxshilashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida» 21.08.2025 yildagi PF-140-sonli Farmoni //lex.uz/uz/docs/-7696567#-7701648